

O‘ZBEK XALQ PEDAGOGIKASIDA MILLIY URF-ODATLAR VA QADRIYATLARNING BOLA TARBIYASIGA TA’SIRI

*Alfraganus universiteti Ijtimoiy fanlar
fakulteti 4-bosqich talabasi*

Bahodirova Shahnoza Rustam qizi

E-mail: srustamova055@gmail.com

Talipova Feruza Tayirovna

Alfraganus universiteti

Psixologiya kafedrasi v.b

dotsenti psixologiya fanlari bo'yicha (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek xalq pedagogikasida milliy urf-odatlar va qadriyatlarning bola tarbiyasidagi o'rni, ularning shaxs kamolotiga ko'rsatadigan ijobiy ta'siri yoritilgan. Shuningdek, maqolada qadimdan kelayotgan marosimlar, urf-odatlar, oilaviy an'analar bola ongiga ta'sir etishi, uning bilim olish, kuzatish, tafakkur qilish, xotira va tasavvur kabi bilish jarayonlarini rivojlantirishdagi ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. Milliy qadriyatlar orqali bolalarda mehnatsevarlik, mehr-oqibat, kattaga hurmat, vatanga sadoqat kabi sifatlar qaror topishi, ularning ijtimoiy munosabatlarga tayyorlanishi ilmiy hamda amaliy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: tarbiya, an'ana, urf- odat, qadriyat, ma'rosim va odob, ma'naviy me'ros, milliy an'analar, xalq pedagogikasi, tarbiya va qadriyatlar uyg'unligi.

ВЛИЯНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ОБЫЧАЕВ И ЦЕННОСТЕЙ НА ВОСПИТАНИЕ ДЕТЕЙ В УЗБЕКСКОЙ НАРОДНОЙ ПЕДАГОГИКЕ**Аннотация**

В данной статье рассматривается роль национальных обычаев и ценностей в узбекской народной педагогике и их влияние на воспитание детей. Также показано, что семейные традиции, обряды и обычаи, идущие из глубины веков, оказывают воздействие на познавательные процессы ребёнка — его память, воображение, мышление и наблюдательность. Через национальные ценности у детей воспитываются такие качества, как трудолюбие, милосердие, уважение к старшим, преданность Родине, что имеет как научное, так и практическое значение.

Ключевые слова: воспитание, традиция, обычай, ценность, обряд и этикет, духовное наследие, национальные традиции, народная педагогика, гармония воспитания и ценностей.

THE INFLUENCE OF NATIONAL TRADITIONS AND VALUES ON CHILD UPBRINGING IN UZBEK FOLK PEDAGOGY

THE INFLUENCE OF NATIONAL TRADITIONS AND VALUES ON CHILD UPBRINGING IN UZBEK FOLK PEDAGOGY

Annotation

This article explores the role of national customs and values in Uzbek folk pedagogy and their influence on child upbringing. The paper emphasizes how family traditions, rituals, and customs inherited from ancient times affect children's cognitive processes, such as memory, imagination, thinking, and observation. Through national values, children develop qualities such as diligence, compassion, respect for elders, and loyalty to the homeland, which are substantiated both scientifically and practically.

Keywords: upbringing, tradition, custom, value, ritual and etiquette, spiritual heritage, national traditions, folk pedagogy, harmony of upbringing and values.

Kirish. Milliy istiqlol g'oyasini singdirishda ota-ona o'z farzandining maktabgacha tarbiyasi uning keying davrda qanchalik muhim ahamiyat kasb etishini va uzluksiz ta'lim-tarbiyaning muhim bosqich ekanligini aglash yetishi nihoyatda zarur.

Bizga ma'lumki har bir yurtning o'z urf- odat va an'ana va qadriyatlar mavjud. Bu qadriyatlar bizga qadrlil bo'lgan narsalar bo'lgani uchun ham qadriyat deyiladi. Xalqona qadriyatlar bilan urf-odatlar islomiy qadriyatlar bilan chambarsach bog'liq. Ularda vatanparvarlik, halollik, elni e'zozlash, adolat, mehnatsevarlik, kamtarlik, mardlik, hushyorlik, saxiylik, mehmondo'stlik, vafodorlik, sabr-qanoat kabi insoniy fazilatlar ulug'lanadi. Adovat, kibr-havo, hasad, fitna-fasod, dilozorlik, xudbinlik, tekinox'rlilik, ilmsizlik, nodonlik, farosatsizlik kabi illatlar qoralanadi. Tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarning qo'llanishi yoshlarni mustaqil fikrlashga, o'zligini anglashga va ijtimoiy hayotga tayyorlashga yordam beradi. Shu bois tarbiya va qadriyatlarning uyg'unligi shaxs kamolotida hal qiluvchi o'rin tutadi.

Bizning xasharchilik va mehnatvchilik yurtimizda shunday tushuncha borki, agar mehr-oqibat tuyg'usida tarbiyalangan kishi hozir kimgagdr yordam berp mehnat yoki xasharchilik qilsa, unikiga ham ko'pchilik mehnat qilgani keladi. Agar inson kimgadir yaxshilik qilsa hammadan yaxshilik qaytadi, aksincha yomonlik qilsa hammadan yomonlik qaytadi. Xuddi shu odat dunyoning eng rivojlangan davlatlaridan biri Yaponiyada ham bor ekan. «Hech qayerda uchramaydigan, faqat Yaponiyada bir-birini to'ldiradigan bir uyg'unlik bor. Bu - eng zamonaviy sanoat bilan milliylikning uyg'unligidir. Shuning uchun ham italyan jurnalistlaridan biri hayrat bilan: «Hozirgi yaponlar yuksak taraqqiyotga erishgan bolsa ham xulq, odat, tafakkurda bobolari,

momolaridan farq qilmaydigan odamlardir», - deb yozgan. Yaponlar yuksak texnik taraqqiyotga o'zbeklarga xos bo'lgan mehr-oqibat munosabatlarini kiritishdi va dunyoning eng qudratli davlatlaridan biriga aylandi».

Qadriyat - «tarix sinovlaridan o'tgan, milliy manfa'tlarimiz, bugungi va ertangi orzu-intilishlarimizga, taraqqiyot talablariga to'la javob beradigan, yillar o'tgani sari qadri ortib boradigan g'oya va tushunchalardir»

An'ana - kishilar ongida, hayotida o'z o'mini topgan ijtimoiy hodisa bo'lib, avloddan avlodga o'tadigan, takrorlanadigan tartib va qoidalaridir.

Urf-odat kishilarning kundalikdagi turmushiga singib ketgan, ma'lum muddatda takrorlanib turuvchi xatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan ko'nikma va xulq-atvor qoidalaridir. Masalan, kichiklarning kattalarga salom berishi, mehmonlarni alohida hurmat bilan izzatlash va h.k.

Ma'naviy meros – xalqning asrlar davomida to'plagan bilim va qadriyatlari majmui bo'lib, u tarbiya vositasi sifatida avloddan-avlodga o'tadi. Milliy an'analar orqali bolalarda vatanparvarlik, mehnatsevarlik, mehr-oqibat va axloqiy poklik sifatleri shakllanadi.

Bu biz uchun qadrlil bo'lgan qadriyatlarimizni shakllantirish orqali bolalarga o'yin orqali qadriyatlarni singdirish mumkin. O'yin bolaning bilish jarayonlarini shakllantiradi. O'yin davomida bola tengdoshlari bilan muloqot qiladi shu tufayli unda muloqot jarayonlari shakllanadi. Ijtimoiy muhitga moslashishi uchun ham bola ko'proq o'yin o'ynashi lozimdir.

O'yinlarning asosiy mazmuni va shakli tabiiy sharoit, mehnat faoliyati va ijtimoiy axloqiy munosabatlardan kelib chiqqan. Qadimda «Qilich jangi», «Tuya poygasi», «Otliqlar poygasi», «Tuya jangi» kabi musobaqa - o'yinlar bo'lganligi ma'lum. Xalq og'zaki ijodida, jumladan, dostonlarda yoshlarni jismoniy chiniqtirishga, barkamol bo'lishiga xos qadriyatlar ko'plab uchraydi. Xususan, «Alpomish» dostonida ota-bobolarimizning bola jismonan sog'lom bo'lishiga katta e'tibor bilan qaralganligi, Alpomishning yetti yoshida og'ir yoyni ko'tarib otishi unga yoshlikdan jism oniy tarbiya berilganidan dalolat beradi. Yoshlar qadimdan o'zining jasurligi va topqirligini el oldida namoyish etib, sinovdan o'tgan. Alpomish ham aql-zakovati, kuch-qudratini ko'rsatib to'qson alpning eng zo'ri ko'kaldoshni mag'lub etadi va yor vasliga yetadi. Lekin Alpomish bir zumda pahlavon bo'lib qolmagan, albatta. Pahlavonlik shohsupasiga uni bolaligidan merganlik, olishish, nayza otish, qilichbozlik, chavandozlik, kurash kabi musobaqa - o'yinlarini o'ynagani sabab bo'lgan. Yoshlarga bolalikdan go'zal odob axloq fazilatlarini singdirish maqsadida o'yinchoqlardan tarbiya vositasi sifatida o'rganish muhim sanaladi. „Oliyjanoblik bahosi“ hikoyasida qo'g'irchoqlar anqovlik, laqmalik, qoralanib oliyjanoblik yuqori sanalgan. «Sopoldan turli-tuman buyum, shakl va o'yinchoqlar yasaydigan bir qo'g'irchoq — odam yasabdi. Usta har uchala qo'g'irchoqqa ham bir xil jilo va sayqal

beribdi. Q o'g'irchoqlarni shunday bejirim tayyorlabdiki, bozorga olib chiqishi bilan tezda xaridorlarni o'ziga jalb etibdi.

Tug'ilish, sunnat to'yi, nikoh va boshqa marosimlar bolaning jamiyat hayotiga moslashishida katta rol o'ynaydi. Masalan, Navro'z, Mehrjon kabi umumxalq bayramlari bolalarda birdamlik, bag'rikenglik va mehr-oqibat kabi xislatlarni shakllantiradi. Oilaviy marosimlar orqali bolaga axloqiy me'yorlar singdiriladi.

Demak, milliy qadriyatlar bolada xotira, tafakkur, kuzatuvchanlik va tasavvurni rivojlantiradi. Masalan, ertaklar orqali bola tasavvurini, maqollar va topishmoqlar orqali tafakkurini rivojlantiradi. Qadimiy qo'shiqlar, o'yinlar va rivoyatlar esa bolaning emotsional dunyosini boyitadi. Urf odatlar bolaning mehmondo'stlikka, kattalarga hurmat kichiklarga izzatga bo'lishga chaqiradi. Qadriyatlar esa mehnatsevarlikka va vatanparvarlikka chaqiradi. To'y va ma'rosimlar esa bolaning ijtimoiylashuviga va odamlar bilan muloqat qilishga yordam beradi.

Bola tarbiyasida xalq og'zaki ijodining o'rni kattadir.

Ertaklar: bolaning tasavvurini, xayolini kengaytiradi.

Topishmoqlar: tafakkurni charxlaydi.

Maqollar va matallar: axloqiy me'yorlarni o'rgatadi.

Qo'shiqlar va dostonlar: ma'naviy merosni avlodidan-avlodga yetkazadi.

Milliy urf-odatlarnin insonning bilish jarayoniga ham ta'sr qiladi.

Ertak va she'rlar yod olishi bolaning xotirasini rivovlantiradi. Maqol va topishmoqlar esa tafakkur operatslarini, turli xil bayramlarda ishtirok etish bolaning kuzatuvchanligi sezgisini oshiradi.

Alisher Navoiy, Ahmad Yassaviy, Abdurauf Fitrat kabi allomalarning asarlarida tarbiya va axloqiy qadriyatlarga oid g'oyalar mavjud. Bu meros yoshlarga ma'naviy komillikka intilish, vatanparvarlik va odob-axloqni o'rgatishda muhim o'rin tutadi. Biz kattalar bolalarga ko'proq kitoblar o'qib berishimiz kerak. Kitob bolalani tafakkurini rivojlantiradi.

Globalashuv sharoitida milliy qadriyatlar yoshlarni milliy o'zligidan ajralib qolishdan asraydi. Zamonaviy ta'limda xalq pedagogikasidan foydalanish bolalarning milliy g'ururi va ijtimoiy faolligini kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytsam, xalq pedagogikasida tarbiya milliy qadriyatlarimiz, urfodatlarimiz, an'ana va udumlarimizning tub mohiyatini o'rganish, o'tmishni unutmaslik, bugunning qadriga yetishlik va kelajakka umid ruhida olib boriladi. Yoshlarga esa bolalaikdan go'zal odob axloq fazilatlarini singdirish maqsadida o'yinchoqlardan tarbiya vositasi sifatida o'rganish muhim sanaladi. O'zbek xalq pedagogikasidagi qadriyatlar nafaqat tarbiyaviy, balki ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishning asosiy mezoni sifatida ahamiyat kasb qiladi. Bu qadriyatlar bugungi zamonaviy ta'lim jarayonlarida ham muhim pedagogik vosita bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 1 may
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 fevraldagi "Xotin-qizlarni qo'llab- quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5325-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 1 martdagi "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-81-son Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 7 martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-son Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6 iyuldagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma - bosqich amalga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 422-sonli Qarori.
6. O'zbekiston Respublikasining 29 yilligi bayramida Prezident Shavkat Mirziyoevning so'zlagan nutqi. Xalq so'zi 2020 yil 1 sentyabr.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 30 sentyabrda "O'qituvchi va murabbiylar kuni" tantanali marosimdagidagi nutqi.
8. Avlaev, O. U., Burkhanov, A. A., Ismoilova, D. M., & Norkuzieva, M. A. (2020). Factors Affecting the Intellectual Dynamics of the Individual. Test Engineering & Management, 83, 693-702.
9. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: Cho'lpon, 2019.
10. Bazarova D. "O'zbekistonda xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish – davr talabi". –Toshkent: TDYuU, 2019.
11. Ijtimoiy pedagogika O'quv qo'llanma; F.Egamberdiyeva , M.Toshov, U.Mamanazarova 2023 "EFFECT-D" nashriyoti, 2023
12. Ismoilova D.M Zamonaviy didaktik yondashuvlar asosida umumiy o'rta ta'lim maktablari ta'lim mazmunini prognostika qilish "Xalq ta'limi" O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali ISSN 2181-7839 2020 3-maxsus son (mau-iyun).
13. Ismoilova, D. M. (2015). Инновационные технологии как компонент развития личности Ульфат, М., & Дилафруз, И. (2020). ТАРБИЯ-YUKSAK MA'NAVIYAT BESHIGI. Academic research in educational sciences, (4).
14. Ismoilova, D. M. (2020). TA'LIM SO'ASIDA PROGNOZ ILISH ILMIY-PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. Academic research in educational sciences.
15. Ismailova, Z.K. "Pedagogika" 2007-yil
16. M.Toshov.- T.: "EFFECT-D". 2022.-216b /"Professional ta'lim muassasalarida ma'naviy- ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarni tashkil etish " O'quv qo'llanma

17. Maxkamov U.I, Ismoilova D.M Tarbiya- shaxs kamolotida eng katta kuch. Ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar 5-son ISSN 2181-7286 2020 yil dekabr.
18. Maxkamov U.I, Ismoilova D.M Allomalar merosi - milliy tarbiya asosi "Xalq ta'limi" O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali ISSN 2181-7839 1-son, 2021 yil yanvar-fevral.
19. Muxiddinovna, I. D. (2020). Educational forecasting as a scientific and pedagogical problem. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol, 8(6).
20. Muhiddinovna, I. D. (2020). celi sovremennogo obrazovaniya, formiruyushie trebovaniya k prepodavatelyu. *Jurnal nauchnyx i prikladnyx issledovaniy*, 12-14.
21. Mannopovna, J. O., & Muhiddinovna, I. D. (2020). Optimization of primary education. *ACADEMICIA: An international multidisciplinary research journal*, 10(5), 1229-1232
22. Mutalipova.M.J. "Xalq pedagogikasi" 2015-yil